ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
TRAVMATOLOGIYA, ORTOPEDIYA VA NEYROXIRURGIYA KAFEDRASI
Kafedra mudiri: tibbiyot fanlari doktori, professor:
Xudayberdiev Qobiljon Tursunovich

Kafedra – KECHA: ADTI Travmatologiya, ortopediya va neyrohirurgiya kafedrasi 1967 yili gospital xirurgiya kafedrasining dotsentlik kursida, sobiq sovet ittifoqi sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'iga asosan mustaqil kafedra bo'lib tashkil topgan.

Kafedraga t.f.n., dotsent M.D.Dustmurodov mudirlik qilgan. M.D.Dustmurodov professor G.S.Yumashev rahbarligi ostida 1974 yili "Ko'krak umurtqalarini osteoxondrozi (klinikasi, diagnostikasi va davolash usullari) mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.
Kafedraning moddiy texnika bazasini yaratish va malakali kadrlar bilan to'ldirishga aloxida e'tbor berilgan. Institutimizning marxum otaxon rektori, professor Yu.O.Otabekovning tashabbusi bilan ADTI travmatologiya

kafedrasi bilan I.M.Sechenov nomidagi 1 MMI ning travmatologiya kafedrasi bilan ilmiy izlanishlar bo'yicha uzviy bog'lanib, otalik kafedra hisoblana boshlanadi va bu bog'lanish o'z axamiyatini xozirgi kunda xam saqlab qolgan.

1968 yildan boshlab kafedra malakali ilmiy kadrlar bilan to'la boshladi, shular jumlasidan tibbiyot fanlari nomzodlari: X.T.Tuxtasinov, G.I.Ibroximov. Shu yillari viloyat klinik shifoxonasidagi 40 ta o'rinli travmatologiya bo'limi kafedra bazasi xisoblanar edi. Keyinchalik esa travmatologiya bo'limi 50 ta o'ringa kengaydi va yangi 30 ta o'rinli neyroxirurgiya bo'limi tashkil qilindi.

1974-1975 yillari kafedraning ilmiy rivojlanishi kuchayib, ilmiy mahsulot sifatida nomzodlik dissertasiyalari muvaffaqiyatli yoqlanadi. Avval M.X.Xasanov so'ngra G.I.Ibroximov, N.M.Kurbanov, keyinchalik bu xodimlar kafedraning dotsenti etib saylandilar.

Shu yillari kafedraning assistentlik lavozimlariga E.I.Alimov, K.M.Maxmudova, B.F.Sharipov, M.A.Fedoseeva, M.X.Botirova, J.T.Tuxtaevlar saylandilar. 1980-1984 yillari kafedrani t.f.d. professor M.A.Fedoseeva boshqargan. M.A.Fedoseeva 1980 yili professor G.S.Yumashev raxbarligida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.

1980-1990 yillar orasida kafedra ilmiy xayotida 3 ta doktorlik dissertasiyalari yoqlagan. 1984 yili N.M.Kurbanov "Umurtqa pog'onasini asoratli sinishlarini jarroxlik usuli bilan davolash" mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan. Ilmiy raxbari - professor G.S.Yumashev. 1989 yili R.Yu.Osmanov - "Chaqaloqlarda chanoq bo'gimi chiqiqlarini davolashni patogenetik asoslash" mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.

Kafedramiz dotsenti X.T.Tuxtasinov institute jamoat ishlarida ko'p yillar fao lishtirok etdilar va davolash fakultetining dekan muovini lavozimida ishlagan.

1985 - 2002 yilgacha tibbiyot fanlari doktori professor N.M.Kurbanov kafedra mudiri lavozimida raxbarlik qilib kelgan.

N.M.Kurbanov tashabbusi bilan 1983 yili Andijon davlat tibbiyot institute klinikasi qoshida rejali neyrojarroxlik bo'limi tashkil kilindi va xozirda faoliyat ko'rsatmokda. N.M.Kurbanov raxbarligida Respublikamizda birinchilardan bo'lib aloxida vertebroligiya faniga asos solindi va uni rivojlanishiga alohida e'tibor berilmoqda.

Kafedra – BUGUN: Professor N.M.Kurbanov raxbarligida 7 ta fan nomzodlari: K.T.Xudoyberdiev, N.Yu.Mirzayuldashev, O.K.Abduxalikov, B.M.Isakov, A.G.Karimov, B.N.Davlatovlar va 3 ta fan doktori tayyorlandi: K.T.Xudoyberdiev (ximoya sanasi - 1999) O.K.Abduxalikov, (ximoy asanasi - 1999) J.M.Mamanazarovlar (ximoya sanasi - 2000) xozirda 2 ta xodimimiz: dotsent J.T.Tuxtaev., t.f.n. K.A.Kuldashev doktorlik dissertasiyasi va 3 ta xodimimiz nomzodlik dissertasiyalari ustida ishlamokdalar. Professor N.M.Kurbanov raxbarligida Umurtqa pog'onasi va orqa miya patologiyasiga bag'ishlangan 3 ta monografiya nashrdan chiqarilib, keng tibbiyot xodimlariga taqdim etilgan.

1989 va 1999 yillarda kafedramiz tashabbusi va faol ishtirokida Respublikamiz va xorijiy mutaxassislar ishtirokida "Artrologiya va vertebrologiyaning dolzarb muammolari" mavzusida ilmiy – amaliy anjumanlar utqazildi.

Professor N.M.Kurbanov 1997 yil iyul oyida Gollandiyaning Amsterdam shaxrida bo'lib o'tgan Butun jaxon neyroxirurglarning XI – kongressida va Germaniyaning Gannover shaxrida bo'lib o'tgan (1998 y.)

Yevropa neyroxirurglarning konferensiyasida ishtirok etib, Uzbekiston ilm fanining bayrog'ini baland ko'tardi.

Andijon Davlat tibbiyot institutining travmatologiya, ortopediya, XDJ, neyroxirurgiya kafedrasining respublikamizdagi alohida yetakchi o'rnini xisobga olinib, umurtqa pog'onasi kasalliklari, shikastlanishi va ularning asoratlari bilan og'rigan bemorlarga malakali yordam ko'rsatishni takomillashtirish, yangi davolash texnologiyalarini ishlab chikish va amaliyotga tadbiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining 02.05.2000 y. 226 sonli buyrug'iga asosan Respublika Vertebrologiya Ilmiy Markazi tashkil topgan.

2003 yildan boshlab, hozirga qadar kafedraga t.f.d. professor K.T.Xudoyberdiev raxbarlik қilib kelmoқda.

K.T.Xudoyberdiev – asosiy e'tiborini kafedrani moddiy texnik bazasini mustaxkamlash, talabalar, magistrlar va klinik ordinatorlar bilim olishi uchun sharoitlarni tubdan yaxshilashga karatdi. Kafedra ukuv bazalarida joylashgan auditoriyalar va ma'ruzalar zali talab darajasida ta'mirlandi. ARM va test markazi bilan xamkorlikda fanlar buyicha ukuv adabiyotlarini yangi avlodi tayyorlanib talabalarga takdim etildi. Kafedra xodimlari – Respublikamizni yetakchi va tayanch ilmiy tekshirish institutlari va OTM bilan xamkorlik asosida malaka oshirishga yubordi. Institut kafedralar bilan xamkorlikda 2004-2019 yillarida 4 ta nomzodlik, 1 ta doktorlik dissertasiyalarini tayyorladi. 2010-2016 yillar davomida Travmatologiya va ortopediyaning dolzarb muammolari va neyrohirurgiyaning dolzarb muammolariga bagichlangan ilmiy-amaliy konferensiya utkazildi. 3 nafar hodim shet elda (Mamajonov K.H. 2017 yilda Rossiya Federaciyasining Kozon shahrida 1 oy, Kodirov A.A. va Mamajonov B.C. lar Rossiya Federaciyasining Novosibirsk shahrida) malaka oschirib keldilar, 2018 yil kafedra assistenti Tursunov K.K. UzNIITO da malaka oschirib kaytdi.

Kafedrada ilmiy isch olib borayotgan hodimlar:

Mamadaliev A.B. va Kodirov A.A. lar Phd nomzodlik dissertaciyasini yoklaschga kirischischgan.

2012 yil Respublika mikyosidagi "Travmatologiya va artrologiyaning dolzrab muammolari" mavzusidagi ilmiy va amaliy konfrensiya utkazdi. 2012-2013-2015 yillar. Uzbekiston Respublikasi mulk Agentligidan "3 ta" ixtiroga patent oldi. 6 ta ukuv kullanma, 1 ta monografiya chop kilindi.

2010 yildan - 2018 yillar ichida - travmatologiyada naysimon sueaklar siniklarini zamonaviy davolash usullaridan "bloklovchi osteosintez" uslubini amaliyotga olib kirdi, kafedramiz xodimlari tomonidan muvafakiyatli kullanilmokda. Respublikamizda yetakchi bulgan TOITI metodik yordami

bugimlarni "Endoprotez" lash amaliyoti yulga kuyildi. 2016 yili Respublika mikyosidagi "Neyroxirrugiyaning (spinal patologiya)" dolzarb muammolariga bagishlangan ilmiy amaliy konfrensiya - Andijonda utkazildi. Xozirda kafedraning davolash bazalarida Spinal Xirurgiyaning barcha davolash uslublari amaliyotga kiritilgan, muvaffakiyatli kullanilmokda.

2019 yilda 1 ta monografiya, 3 ta ukuv kullanma, kuplab makolalar chop kilindi. 2019 yil 10 avgust kuni Mamajonov B.S. - PhD-tibbiyot soxasi buyicha dissertasiyasini yokladi.

2020 yil yanvar oyida – Ma'rifat va madaniyat kanalida ustozimiz N.M. Qurbanov xotirasiga bag'ishlangan ko'rsatuv namoyish etildi. Davolash ishlariga ko'maklashish va axolini tibbiy ko'rikdan o'tkazish uchun Bo'z tuman Tibbiyot birlashmasi markaziy poliklinikasida tibbiy ko'riklar o'tkazilmoqda.

Online tizimi bo'yicha "Covid-19" xaqida, undan saqlanish chora tadbirlarini axoli tomonidan bajarilish ketma ketligini namoyish etuvchi animatsion rolik tayyorlab namoyish etildi.

O'quv jarayoni online bo'yicha olib borildi va online ma'ruzalar talabalar e'tiboriga xavola qilindi. 2020yil 11-12-iyun kunlari institutimizda o'tkazilgan online konferensiyada faol qatnashib, Rossiya federatsiyasidan 2 ta, Respublikamizning yetakchi olimlaridan 3 ta ma'ruza taqdim etildi. Kafedramiz xodimlari 16 ta tezis, 5 ta ma'ruza bilan qatnashdik.

Respublikamiz innovatsion markazi tomonidan e'lon qilingan tanlovga asosan 1 ta innovatsion grant uchun loyiha taqdim etdik. 2 ta monografiya, 6 ta jurnal maqola chop etishga berildi. 1ta doktorlik dissertatsiyasi muammolar xay'atidan muhokamadan o'tdi.

2020 yilda Xalqaro aloqalarni jadallashtirish boradi quyidagi ishlar amalga oshirildi.

1) Pol'sha Respublika sxm - tibbiyot firmasi yordamida Polьshaning Varshava va universitetlari o'rtasi o'zaro xamkorlik bo'yicha shartnoma imzolandi. Polьshaning yetakchi travmatolog mutaxassislar ma'ruzalar va maxorat maktabi –darslarini namoyish qildilar.

№2. Muxtaram prezidentimizning "Patronaj" tizimini yanada rivojlantirish borasidagi ko'rsatmalariga binoan kafedramiz xodimlar g'grafik asosida bo'z tumani tibbiyot birlashmasi markaziy poliklinikasida bo'lib Covid-19 pandemiyasiga oid m'lumotlarni taqdim etdi. SHaxsiy gigiena qoidalari pandemiya sharoitida xar bir yauqaro bilish va bajarishi lozim bo'lgan vazifalar atroflicha tushuntirildi. Bemorlarni ko'ruvi va konsulьtatsiyalar amalga oshirildi. Zarur bemorlarga jarroxlik amaliyotlari bajarildi. 2020-yil ilmiy maxsulotlar - 2 ta foydali modelьga patent, skopus platformasiga kirgan jurnalda – 2 ta maqola, 2 ta monografiya, 2 ta o'quv qo'llanma, OAK ro'yxatiga kirgan jurnallarda 16 ta maqola chop etildi.

Tibbiyot amaliyotiga tizzza bo'g'imi meninskining jaroxatlarini, Artrosokpiya" usulida operatsiya bajarish joriy qilindi.

Kafedramiz - ximoya qiluvchi dissertantlarni 3 tasiga yetakchi tashkilot sifatida va 2 marotaba rasmiy oplonent sifatida xulosa va retsenziya taqdim etdi.

2021-yilni - 2 fevralidan –Namangan Viloyatini uchko'rg'on tumaniga tibbiy ko'rik uchun va amaliy yorldam uchun safarbar qilindik:

Uchqo'rg'on TTB-da ma'ruzalar, Covid-19 xaqida, ko'rgazmali operatsiyalar, bemorlarni ko'ruvlari amalga oshirildi.

Kafedramiz –institutimizga rejali tashrif buyurgan Respublika ta'limni sifatini nazorat qilish markazining "Akkreditatsiya –attestatsiya" tekshiruvidan muvoffakiyatli o'tdi.

Institutimizda tashkil etilgan – "Profilaktik tibbiyotda innovatsion goyalar" mavzusidagi Respublika miqyosidagi Ilmiy –Amaliy konfrentsiyada faol qatnashdik.

2021 yil- Kafedramiz xodimlari tamonidan - 2 ta o'quv qo'llanma 3 ta monografiya, 19 ta jurnal maqolalari, 2 ta patent tayyorlandi. 2 ta umurtqa pag'onasida bajariluvchi yangi operatsiya amaliyotga tadbiq qilindi

Xozirgi kundagi kafedraning ilmiy saloxiyati 50% ni tashkil qilmoқda.

Kafedra – ERTAGA: Kelgusida kafedra ilmiy salohiyatini ko'tarish, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, chet el yetuk olimlari bilan ilmiy aloqalar ko'lamini kengaytirish borasida ish olib borilmoqda.

Kelgusi 3 yil muddatda 1 ta fan doktori, 5 ta fan nomzodi tayyorlash, 3 nafar olimning chet el tibbiyot institutlari va universitetlarida tajriba oshirilishlari va stajirovkalarga borishi rejalashtirilgan.

Xozirda 2 ta xodimimiz: dotsent J.T.Tuxtaev., t.f.n. K.A.Kuldashev doktorlik dissertasiyasi va 3 ta xodimimiz nomzodlik dissertasiyalari ustida ishlamokdalar.

Mavzulari tasdiqlanib ilmiy izlanishlar borasida jadal ish olib borayotgan quyidagi kelajagi bor yoshlar kelgus 2-3 yilda PhD dissertatsiyalarini yoqlaydilar.

Mamadaliyev A.B. «Особенности клинического течения и тактика лечения нетравамтических внутримозговых кровоизлияний в возрастном аспекте». (G.M. Kariyev)

Kadirov A.A. «Дифференцированное хирургическое лечение переломо-вывихов шейных позвонков в раннем периоде» (Q.T.Hudayberdiyev)

Assistent Abdulazizov O.N. «Профилактика постравматических контрактур суставов кисти» (Q.T.Hudayberdiyev)

PhD dissertatsiyalar mavzusini tasdiqlash ustida jadal ishlar olib bormoqda.

Shuningdek, kafedra professor-o'qituvchilari axborot texnolologiyalarini o'rganish va ingliz tilini mukammal bilish ustida reja asosida ish olib bormoqdalar. Xalqaro sertifikatlarni olish uchun o'z bilimlarini oshirib bormoqdalar.

Innavatsion yarmarkalarda yangi yaratuvchanlik bilan ishtirok etish, amaliy mashg'ulotlarda innovatsiyani qo'llash, modul tizimida faol ishlash orqali masofaviy ta'lim tizimi sifatini oshirish talabalar bilan ishlash tizizmini tubdan ijobiy tomonga o'zgartirish, ilmiy nashrlar salmog'ini keskin oshirish, auditoriyalardagi talabalar uchun sharoitni yaxshilash, kafedra professor-o'qituvchilarining kunlik faoliyatdagi asosiy va mas'uliyatli vazifa bo'lib turadi.

Kafedra yigilishlari

TTJda utkazilgan tadbirlar

Manaviy Marifiy tadbirlar va 5 ta Muhim taschabbus

ABU RAYHON BERUNIY

XUSH KELIBSIZ!

XUSH KELIBSIZ!

XUSH KELIBSIZ!

YANGI O'ZBEKIS

Shot On
Artel Tesla

BOSHLANADI
Shot On
Artel Tesla

ХАМСА

НОТА ЧИЗИҚЛАРИ
ПАУЗАЛАР

Fly
Emirates
SAMSUNG

YANGI
O'ZBEKISTON-
YANGICHA
DUNYOQARASH

Ona tilim-jonu dilim.

UZBEKISTAN

2021/4/26 12:26

Ukuv jarayonlari

СКЕЛЕТ ЧЕЛОВЕКА

Hotira va Qadrlfsch

Davolasch ischlari

Halqaro aloqa va konferentsiyalar


Ер юзидаги 80%
ахоли умуртка
погонасидаги огрикли
белгиларга шикоят
килади
(J.Chin, 1997, А.Н.Коновалов 2001, А.И.Гусев 2015)
SHOT ON REDMI 7
AI DUAL CAMERA

Tibbiy kuriklar va tumanlardagi ukuv muassasalarga taschriflar

2017 YIL - XALQ BILAN
MULOQOT VA INSON
MANFAATLARI YILI

Kafedra kunlari

O'ZBEKISTON KELAJAGI-BUYUK DAVLAT!
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG'I
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT MADHIYASI